

"Kapitalbank" aksiyadorlik tijorat banki bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazishi to'g'risida e'lon qiladi

Hurmatli aksiyadorlar!

"Kapitalbank" ATB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2019- yil 23- sentyabr kuni o'tkaziladi. Manzil: Toshkent sh., Sayilgoh k.7, "Kapitalbank" ATB Bosh ofisi binosi, e-mail info@kapitalbank.uz , veb-sayt www.kapitalbank.uz. Ro'yxatdan o'tishning boshlanishi - **soat 10.30** da.

Bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishining boshlanishi - **soat 11.00** da.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan bank aksiyadorlari reestri tuziladigan sana **2019- yil 17- sentyabr**.

Kun tartibi:

1. "Kapitalbank" ATB Aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish Reglamentini tasdiqlash to'g'risida.
2. Bank Kengashi a'zosi Kan T.V. vakolatlari tugatilishi to'g'risida.
3. Bank Kengashiga qo'shimcha saylov.
4. Xayriya, beg'araz va homiylik yordamining maksimal miqdorini belgilash to'g'risidagi masala ko'rib chiqilishi haqida.

"Kapitalbank" ATB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun tayyorlangan materiallar bilan quyidagi manzilda tanishish mumkin: Toshkent sh. Sayilgoh k., 7, "Kapitalbank" ATB Bosh ofisi binosi, 3-qavat, 36-xona.

Eslatma: Aksiyadorning vakili aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida shaxsan qatnashadi yoki vakili to'g'risida yozma shakldagi ma'lumotlar ko'rsatilgan (ism yoki nomi, yashash joyi yoki joylashgan joyi, pasport ma'lumotlari) ishonchnoma asosida harakat qiladi. Jismoniy shaxs nomidan ovoz berish uchun berilgan ishonchnoma notarial tasdiqlanishi kerak. Yuridik shaxs nomidan ovoz berish uchun ishonchnoma qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladi.